



**“ALFRAGANUS UNIVERSITY” NODAVLAT OLİY TA'LIM
TASHKILOTI**

N.G.Muminov

J.P.Kurbonov

O'rganib chiqib taklif kiriting.

Muddat: 2025-yil 24-sentabr

№01-05-06/856

15 Sentabr 2025

A.R.Ismailov

Rektor





ООО «GLOBAL CATERING»

Республика Узбекистан, Самаркандская область,
город Самарканд, Шодлик МФЙ, ул. Али Кушчи, дом 1
ИНН: 303103081, р/с: 20208000000404663001
в ОПЕРУ АКБ "ALOQABANK", МФО: 00401

№25-08
25.08.2025y.

**“ALFRAGANUS UNIVERSITY”
nodavlat oliy ta'lim tashkilotiga**

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ilmiy-texnik buyurtma va grantlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishda mavjud muammolarga yangicha yechim topish, tajribali amaliyotchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish, ta'limda ishlab chiqarish infratuzilmasi va amaliy misollardan keng foydalanish kabi yo'nalishlarda oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini ta'minlash alohida qayd etilgan.

Shu boisdan ham “GLOBAL CATERING” MCHJ va Alfraganus University NOTTining Iqtisodiyot fakulteti professor-o'qituvchilari bilan xo'jalik shartnoma asosida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali korxona faoliyatida boshqaruv tizimini takomillashtirish, shuningdek “SWOT”, “TOWS” va “SNW” tahlillarni amalga oshirish asosida korxona faoliyatida duch kelayotgan pragmatik muammolarini bartaraf etish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqarish uchun salohiyatli professor-o'qituvchilarni jalb etib berishingizni so'rab qoladi.

Direktor



Z.Sh.Nazarov

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” MCHJ

K/R: 01-05-06/856

2025-yil 15-sentabr

ALFRAGANUS UNIVERSITY

ректори в.в.б.

PhD, доцент Исмоилов А.Р.га

БИЛДИРИШНОМА

“Global catering” МЧЖ хатига асосан, ALFRAGANUS UNIVERSITY Иқтисодиёт факультети проф-ўқитувчилар билан хўжалик шартнома асосида “Global catering” МЧЖ корхонасида “SWOT”, “TOWS” va “SNW” таҳлилларни амалга ошириш орқали корхона фаолиятида дуч келаётган прагматик муаммоларни бартараф этиш учун корхона ходимларига қисқа муддатли мастер-класс дарсини ўтиб бериш учун куйидаги проф-ўқитувчиларга юклатилиши режалаштирилмоқда:

1. Гафуров А.Б. -Иқтисодиёт кафедраси мудир, PhD, доцент
2. Назаров Н. Н. -Иқтисодиёт кафедраси доцент в.б., PhD

Иқтисодиёт факультети декани



Курбанов Ж.

ALFRAGANUS UNIVERSITY Ilmiy-texnikaviy kengashining
2025 yil 10- sentabr 1-sonli majlisi bayonidan
KO'ChIRMA

QATNASHDILAR: 20 kengash a'zolaridan 18 kishi qatnashdi.

KUN TARTIBI:

1.4. "GLOBAL CATERING" MCHJ va ALFRAGANUS UNIVERSITY o'rtasidagi Xo'jalik shartnomasini amalga oshirish xususida.

EShITILDI: Kengash raisi prof. N.G.Muminov so'zga chiqib, "GLOBAL CATERING" MCHJning universitetimizga yuborgan murojaat xatiga javoban Iqtisodiyot fakulteti rahbariyati Xo'jalik shartnomasini tuzish va uni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi bo'yicha murojaat qildi. Xo'jalik shartnomasi doirasida "Global catering" MChJ korxonasida "SWOT", "TOWS" va "SNW" tahlillarni amalga oshirish orqali korxona faoliyatida duch kelayotgan pragmatik muammolarni bartaraf etish uchun korxona xodimlariga qisqa muddatli master-klass darslari tashkil etilishi va ushbu darslarni o'tishga quyidagi professor-o'qituvchilar jalb etilishi rejalashtirilmoqda:

1. Gafurov A.B. -Iqtisodiyot kafedrasini mudiri, PhD, dotsent
2. Nazarov N. N. -Iqtisodiyot kafedrasini dotsent v.b., PhD

Kengash a'zolaridan ushbu xo'jalik shartnomasini tuzish va amalga oshirish xususida o'z fikr-mulohazalarini bildirish so'raldi.

Kengash a'zolari xo'jalik shartnomasini tuzish va amalga oshirish bo'yicha qo'llab-quvvatlovchi fikrlarini bildirishda.

TAKLIF: Ilmiy-texnikaviy kengash a'zolari tomonidan bu taklif bir ovozdan ma'qullandi.

QAROR QILINDI:

1. prof. N.G.Muminovning "GLOBAL CATERING" MCHJ va ALFRAGANUS UNIVERSITY o'rtasidagi Xo'jalik shartnomasini amalga oshirish xususida axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. "GLOBAL CATERING" MCHJ faoliyatida duch kelayotgan pragmatik muammolarni tahlil etish va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, hamda korxona xodimlariga qisqa muddatli master-klass darslari tashkil etish" nomli loyihani bajarish Iqtisodiyot fakulteti jamosiga topshirilsin.

Ilmiy-texnikaviy
Kengash raisi, prorektor

Ilmiy kotib



Muminov. N. G.

Karimov. B. S.



“TASDIQLAYMAN”

“ALFRAGANUS UNIVERSITY”

nodavlat fa'lim tashkiloti

rektori

A.R.Ismailov

“GLOBAL CATERING” MCHJ faoliyatida duch kelayotgan pragmatik muammolarni tahlil etish va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, hamda korxona xodimlariga qisqa muddatli master-klass darslari tashkil etish oid xo'jalik shartnomasi doirasida

TEXNIK-IQTISODIY ASOSNOMA

Mavzuning dolzarbligi

Korxona faoliyatidagi pragmatik muammolarni tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, xodimlarga master-klass o'tkazish uchun dastlab muammoni aniqlash, uning sabablarini tahlil qilish, yechimlarni shakllantirish va ularni o'qitish-o'rgatish yo'li bilan xodimlarga yetkazish kerak. Bu jarayon korxona samaradorligini oshiradi va xodimlarning malakasini yaxshilaydi.

Ishning maqsadi va vazifalari

Ishning Maqsad: “GLOBAL CATERING” MCHJ xo'jalik yurituvchi subyektining boshqaruv tizimini SWOT, TOWS va SNW tahlillari orqali kompleks o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ishning vazifalar. Korxonada mavjud boshqaruv tizimini o'rganish va SWOT tahlili yordamida kuchli va zaif tomonlarini aniqlash:

- Tashqi muhit omillarini baholab, imkoniyat va tahdidlarni ko'rsatib berish.
- TOWS tahlili asosida strategik yechimlarni ishlab chiqish.
- SNW tahlili orqali korxona ichki resurslarini chuqur baholash va neytral sohalarni mustahkamlash yo'llarini belgilash.
- Boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan texnik va iqtisodiy asoslangan ilmiy takliflarni ishlab chiqish.
- Korxonani barqaror rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar

- korxona faoliyat sohasi: umumiy ovqatlanish va catering xizmatlari;
- xodimlar soni: 80–120 nafar (mavsumiy o'zgarishlarga qarab);
- yillik aylanma mablag'lar: o'rtacha 500–800 mln so'm;
- xizmat ko'rsatish hajmi: yiliga 200 ming nafardan ortiq mijozga xizmat ko'rsatish;

- moliyaviy natija: sof foyda – yillik daromadning 12–15 % ini tashkil etadi;
- texnologik baza: zamonaviy oshxona jihozlari, saqlash omborlari, sovutgich tizimlari;
- bozor ulushi: Toshkent shahridagi katering xizmatlari segmentida 8–10 %.

Joriy qilingan obyekt va erishilgan natijalar

- SWOT tahlili natijasida korxona kuchli tomonlari (sifat, tajriba, malakali xodimlar) hamda zaif jihatlari (logistika, marketing, moliyaviy resurslar) aniqlandi.
- TOWS tahlili asosida strategik moslashtirish choralari ishlab chiqildi:
- davlat qo'llab-quvvatlash dasturlaridan foydalanish, eksport xizmatlarini rivojlantirish, xarajatlarni optimallashtirish.
- SNW tahlili orqali neytral holatlar (marketing va logistika tizimi) bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilandi.

Amaliy natijalar:

- xarajatlarni 7–10 % ga kamaytirish imkoniyati aniqlandi;
- xizmat sifatini oshirish hisobiga mijozlar bazasini 15–20 % ga kengaytirish imkoniyati yaratildi;
- boshqaruv tizimida elektron hisob va rejalashtirish tizimlari joriy qilinishi tavsiya etildi;
- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun diversifikatsiya va qo'shimcha xizmat turlarini (onlayn buyurtma, tezkor yetkazib berish) yo'lga qo'yish zarurligi ko'rsatildi.

Mas'ul bajaruvchilar:



Iqtisodiyot kafedra
dotsenti **A.B.Gafurov**
dotsent v.b. **N.N.Nazarov**

XO'JALIK SHARTNOMASI

№ GC 02/09

Toshkent shahri

“02” sentyabr 2025 y.

“GLOBAL CATERING” MCHJ koxonasi nomidan Nizom (Ustav) asosida harakat kiluvchi rahbar Nazarov Z.Sh. (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi), bir tomondan va “ALFRAGANUS UNIVERSITY” MCHJ nomidan Ustav asosida harakat kiluvchi direktor Yuldashev Yo.S. (keyingi o‘rinlarda “Ijrochi” deb yuritiladi), ikkinchi tomondan birgalikda “Taraflar”, alohida esa “Taraf” deb ataluvchilar, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur xo‘jalik shartnomasiga ko‘ra “Ijrochi” “Buyurtmachi”ning topshirig‘iga asosan mazkur shartnomaning 1.2-bandida ko‘rsatilgan xizmatlarni bajarish, “Buyurtmachi” ushbu xizmatlarni qabul qilish va haqini to‘lash majburiyatini oladi.

1.2. “Ijrochi” quyidagi xizmatlarni (Keyingi o‘rinlarda “Xizmatlar”) bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi:

- xo‘jalik yurituvchi sub‘yektida boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar tayyorlash;

- xo‘jalik yurituvchi sub‘yektida “SWOT”, “TOWS” va “SNW” tahlillarni amalga oshirish orqali mavjud boshqaruv muammolarini bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar tayyorlash.

2. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. “Ijrochi”ning majburiyatlari:

2.1.1. Shartnoma predmeti doirasida bajarilishi lozim bo‘lgan “Xizmatlar”ni mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo‘lgan, kalendar reja asosida sifatli bajarish.

2.1.2. Ilmiy-texnik topshiriqni qabul qilish va baholash shartnomaning bir qismi bo‘lgan texnik topshiriq yoki ish olib borish to‘g‘risida boshqa hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirish.

2.1.3. “Buyurtmachi” tomonidan amaldagi qonunchilik doirasida berilgan topshiriqlarni bajarish.

2.1.4. Korxona faoliyatiga talluqli ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik.

2.2. “Ijrochi”ning huquqlari:

2.2.1. Zarurat tug‘ilganda “Ijrochi” mazkur shartnoma doirasida xizmatlarni ko‘rsatishda “Buyurtmachi”ning yozma roziligiga asosan uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.

2.3. “Buyurtmachi”ning majburiyatlari:

2.3.1. Mazkur shartnoma doirasida xizmatlarni ko‘rsatishda “Ijrochi”ni zarur xujjatlar va ma‘lumotlar bilan ta‘minlash.

2.3.2. “Xizmatlar”ni qabul qilish va haqini to‘lash.

2.4. “Buyurtmachi”ning huquqlari:

2.4.1. Har qanday vaqtda faoliyatiga aralashmagan holda “Ijrochi” tomonidan bajarilayotgan ishlarining holati va xizmatlar sifatini tekshirish huquqiga ega.

3. ISHLARNING QIYMATI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Shartnomaga ko‘ra bajarilgan “Xizmatlar” uchun “Buyurtmachi” “Ijrochi”ning hisob-raqamiga shartnoma narxi to‘g‘risida axdlashuvga muvofiq jami 1 000 000 so‘m to‘lovni, shu jumladan 2025 yil bo‘yicha 1 000 000 so‘m to‘lovni amalga oshiradi.

3.2. Pul to‘lash “Buyurtmachi” va “Ijrochi” kelishuviga muvofiq tugatilgan ish uchun bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

3.3. “Buyurtmachi” “Ijrochi”ning hisob-raqamiga pul o‘tkazish tartibi asosida haq to‘laydi.

4. BAJARILGAN ISH NATIJALARINI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI.

4.1. Shartnoma bajarilishining ayrim bosqichlarida va shartnoma muddati tugaganda erishiladigan natijalar ushbu shartnomaning tarkibiy qismi bo‘lgan kalendar rejada o‘z aksini topadi.

4.2. Ishlar tugatilgandan keyin "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot taqdim etadi.

4.3. "Buyurtmachi" "Ijrochi" tomonidan taqdim qilingan bajarilgan ishlar bo'yicha hisobotni tekshiradi, va hisobotda kamchiliklar bo'lmasa bajarilgan ishlar bo'yicha hisobotni qabul qiladi.

4.4. "Ijrochi" tomonidan "Xizmatlar" muddatidan oldin bajarilgan taqdirda "Buyurtmachi" "Xizmatlar"ni muddatidan oldin qabul qilishi va "Ijrochi"ga shartnoma narxida haq to'lash huquqiga ega.

4.5. Agarda "Xizmatlar" bajarilish jarayonida natijalar salbiy bo'lishini muqarrarligi yoki ishni davom ettirishning maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, "Ijrochi" uni to'xtatishi va undan keyin 10 kun ichida "Buyurtmachi"ga to'xtatilganligini ma'lum qilishi shart. Shunday holat kelib chiqqan taqdirda, "taraflar" 10 kun ichida ishni davom ettirish yo'nalishlarining maqsadga muvofiqligi to'g'risida masalani ko'rib chiqishlari zarur.

4.6. Agar taraflar elektron shaklda hujjat almashishi mumkin bo'lsa, elektron imzo yoki skanerlangan hujjatlarning yuridik kuchi borligi ko'rsatilsa qulaylik yaratadi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi "Taraflar" amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar hisoblanadilar.

5.2. Ijrochi va Buyurtmachi o'zaro almashilgan ma'lumotlarni uchinchi tomonga oshkor qilmasligi, aks holda ma'lum miqdorda javobgarlik belgilash.

6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Shartnomaning amal qilish muddati 2026 yil 31 dekabr.

6.2. "Taraflar" o'rtasida mazkur shartnoma doirasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar muzokaralar olib borish orqali hal etiladi.

6.3. Taraflar o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni muzokaralar olib borish orqali hal etishning imkonini mavjud bo'lmagan taqdirda nizolar "Buyurtmachi" joylashgan joydagi tegishli sudga ko'rib chiqiladi.

6.4. Agar xizmatlar kechiktirilsa yoki sifatsiz bajarilsa, Ijrochi ma'lum foizda jarima to'laydi, shuningdek, Buyurtmachi to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmasa penya hisoblanishi mumkin.

6.5. Taraflardan biri majburiyatlarni bajarmasa yoki boshqa sababga ko'ra shartnomani muddatidan oldin bekor qilish imkoniyatlari (ogohlantirish muddati, yozma bildirishnoma va h.k.).

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. "Taraflar"ning ixtiyoriga binoan qo'shimcha shartlar qo'llanilishi mumkin.

8. TARAFLARNING REKVIZITLARI

Buyurtmachi:

"GLOBAL CATERING" MCHJ

Manzil: Samarqand shahri, Ali Qushchi ko'chasi, 1-uy.

STIR: 303103081

Hisob raqami: 20208000000404663001

Bank: "Aloqabank"

MFO: 00401

Tel: +998909920782

Direktor:

m.o.



Ijrochi:

"ALFRAGANUS UNIVERSITY" MCHJ

Manzil: Toshkent shahar Yunusobod tumani Yuqori qora-qamish ko'chasi, 2-A uy.

Bank nomi: "TURON BANK"

Bank kodi (MFO): 00446

Hisob raqami: 20208000505551165003

STIR: 309738309

IFUT: 85420

Direktor:

m.o.



Nazarov Z.Sh.

Yuldashev Yo.S.

ПЛАТЕЖНОЕ ПОРУЧЕНИЕ № 86

ДАТА

09.09.2025

Дебет плательщика

Наименование
плательщика

ООО "GLOBAL CATERING"

ДЕБЕТ счет
плательщика

20208000000404663001

Идентификационный номер
плательщика средств

303103081

Наименование
банка
плательщикаТОШКЕНТ Ш., АТ "АЛОКАБАНК" БОШ
ОФИСИКод банка
плательщика

00401

Сумма

1 000 000.00

Кредит получателя

Наименование
получателя

"ALFRAGANUS UNIVERSITY" MCHJ

КРЕДИТ счет
получателя

20208000505551165003

ИНН
получателя

309738309

Наименование
банка получателяТОШКЕНТ Ш., "ТУРОНБАНК" АТ
БАНКИНИНГ БОШ ОФИСИКод банка
получателя

00446

Сумма прописью

(Один миллион) сум 00 тийин

Цель платежа

00668 За консалтинговые услуги сог дог № GC 02/09 от 02.09.2025г.

Руководитель

Nazarov Ziyovuddin
Sharofiddinovich

(подпись)

Главный бухгалтер

(подпись)

М.П.

	Проверено	Одобрено	Проведено банком
БАНК	(подпись)	(подпись)	09.09.2025

DALOLATNOMA

2025-yil 2 sentyabrda tuzilgan **GC-02/09**-sonli ““GLOBAL CATERING” MCHJ faoliyatida duch kelayotgan pragmatik muammolarni tahlil etish va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, hamda korxona xodimlariga qisqa muddatli master-klass darslari tashkil etish” bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan “Buyurtmachi” nomidan va “Ijrochi” “ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat ta'lim tashkiloti tasdiqlaymizki, ilmiy-tadqiqot, loyiha-konstruktorlik va joriy etish ishlarini bajarish bo'yicha xo'jalik shartnomada belgilangan vazifalar “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, PhD Gafurov A.B. va “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti v.b., PhD Nazarov N.N.lar tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Xo'jalik shartnomasi bo'yicha hisobot Ilmiy markazga topshirildi, “Buyurtmachi” bajarilgan ishni qabul qilib oldi.

Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo'yicha
prorektor



N.G.Muminov